



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 594 sahifa,  
5-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari .....	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni .....	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abdavaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari .....	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojiakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish .....	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari .....	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida .....	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli .....	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari .....	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli .....	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari .....	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	
O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni .....	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish .....	110
<i>Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	



Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi .....	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar .....	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari .....	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии .....	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды .....	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей .....	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills .....	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari .....	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlashlarini rivojlantirish .....	187
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkur fenomenini rivojlantirish.....	191
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Pedagogical Conditions for Developing Professional Motivation of Economics Students Through Gamification in English Language Classes.....	196
<i>Bobokeldieva Maftuna Abdusamad qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatlarini shakllantirish asoslari .....	203
<i>Urunov Abduxalil Madjidovich</i>	
STEAM yondashuvi vositasida fizika fanida o'quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	208
<i>Jo'rayev H. O., Avezov I. Yo., Sharipov S. B.</i>	
STEAM ta'limi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish .....	214
<i>Cho'ponova Sharifa Bozor qizi, Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
<i>Haydarov Mirjalol Shog'dorovich</i>	

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY SHAKLLANISH INDIVIDUAL TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASH METODIKASI ..... M. B. Sheraliyeva	222
RAQAMLI DAVRDA KITOBXONLIK MADANIYATI VA ADABIYOTNING ROLI ..... Nabiyeva Sharifa Ismailovna, Ergasheva Mehriyona O'lmas qizi	228
JISMONIY TARBIIYA TA'LIMIDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI ..... O'razboeva Adiba Abdug'ani qizi	231
MILLIY KASHTACHILIK ASOSIDA 5-SINF O'QUVCHILARINING ESTETIK TARBIIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ..... O'limova Dilnoza Murodullo qizi	236
ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI 5E MODEL VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH ..... Rajabova Nodirabegim Komilovna	240
OLIY TA'LIM TALABALARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... Raximov Bobirjon Abdurasulovich	245
RAQAMLI PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM RIVOJLANISHIDAGI O'RNI ..... Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna	250
AJDODLAR SIYAMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIIYALASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ..... Xaitov Zufar Asroralievich	255
ГОТОВНОСТЬ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ У ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ ..... Шералиев Сарварбек Сохибжон угли	260
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI ..... Asadova Zarina Axmadovna	263
GRAMMATIK TARJIMA METODINING ASOSIY TAMOYILLARI VA XUSUSIYATLARI ..... Erkinova Madina Komil qizi	272
UMUMTA'LIM MAKTABLARINI BOSHQARISHDA SINIF RAHBARLARI FAOLIYATINING PEDAGOGIK MOHIYATI ..... Komilova Ziroatxon Murodjon qizi	275
MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDA BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASHDA RIVOJLANISH MARKAZLARINING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI ..... Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Avazova Gulshoda Shodi qizi	282
TURIZM SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI KASBIY DISKURSIDA UCHRAYDIGAN KOMMUNIKATIV TO'SIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI ..... Usmonova Zilola Javlon qizi	289
CHET TILINI KASBIY FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASHDA CLIL MODELINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI ..... Yo'ldoshev Otabek Abdug'aniyevich, Amirkulov Asliddin Shuxratovich	294
BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ..... Rajabova Dilfuza Abdumajitovna	299
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ТРЕВОЖНОСТИ И СТРАХА У ЖЕРТВ ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ ..... Махмудова Д. А.	303
ADABIY ASARLARDA XRONOTOP MUAMMOSINING BADIY AHAMIYATI ..... Yaqubjonov Iqboljon Odiljonovich	306
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA SENSOR INTEGRATSIYA YONDASHUVINING AHAMIYATI .. To'rayeva Charosxon Shavkat qizi	311
BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI ..... Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Safarova Rushana Murodullo qizi	316
BADIY ASARLARNI O'QITISHDA EMPATIK YONDASHUVNING METODIK IMKONIYATLARI ..... Shoyimova Shoiri Sanakulovna	320
BOLALAR ME'YORIY ONTOGENEZIDA YOZUV VA GRAFOMOTOR KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHI ..... Alimova Kamola Xayrulla qizi	323
YOSH VOLEYBOLCHILARDA O'YIN QARORINI QABUL QILISH (Decision-making) KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI ..... Azimova Gulnoza Karimjon qizi	328
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI ..... Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi	333



Raqamli egizak texnologiyasi asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	336
<i>Sorimsokov Uchqun Soatboy o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga integrativ mashqlar orqali ta'lim berishning ahamiyati.....	340
<i>Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li</i>	
Voleybol sport turini o'rgatish va uning mohiyati .....	345
<i>Eshbayev Ximmat Ablakul o'g'li</i>	
Qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik mexanizmlari .....	348
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va qadriyatlar integratsiyalashuvining o'ziga xosligi .....	352
<i>A. Bozorov</i>	
Nutqiy etiket madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida .....	357
<i>Abdurahmonova Kamola Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyani rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar .....	362
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning rivojlanishida muhim omil sifatida .....	370
<i>M. Xo'jamberdiyeva, Abduvohidova Shaxnoza</i>	
Jismoniy mashqlar orqali stress va emotsional zo'riqishlarni kamaytirish imkoniyatlari.....	373
<i>Baxodirova Gulyora Nuriddin qizi</i>	
Kasbiy ta'limning raqamli transformatsiyasi va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	378
<i>Biysenov Temirbek</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari .....	382
<i>Bo'libekova Maftuna Shermuxammadovna</i>	
"Tarbiya" darslarini tashkil etish texnologiyalari .....	388
<i>Boltayeva Marjona Oybek qizi, Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Challenges in Translating Behavioral Verbs: A Lexicographic Perspective from English and Uzbek.....	392
<i>Elchayev Zokhidjon Akhmatovich</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari .....	396
<i>Ernazarov Zohid Nazarovich</i>	
Tejamkor ta'lim muhitida kaizen texnologiyasi vositasida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	400
<i>Eshonkulova Shaxnoza Bayturayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish .....	403
<i>Nuriddinova Maysara Ikromovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Raqamli transformatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish .....	406
<i>G. X. Narzullayeva, F. M. Miraximova</i>	
Ekologik omillarning yosh sprinterlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdagi va musobaqa faoliyatidagi o'rni (Orol bo'yi mintaqasi misolida).....	411
<i>Genjemuratova Guljaxon Berdimbetovna</i>	
Emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari .....	416
<i>Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish .....	419
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashda dual yondashuv .....	422
<i>Israilova Xusnida Adilovna</i>	
Legaltech va Lawtech: global istiqbollar, muammolar va imkoniyatlar .....	427
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Nematov Dilshodbek</i>	
Kasbiy faoliyatda muloqot madaniyati va nutq mahoratini rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	432
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Raxmatullayeva Shaxnoza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirishda o'qitish metodlarining ahamiyati .....	435
<i>Kamalova Saida Maxamat Ibraximovna</i>	

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari .....	439
<i>Kambarova Dilfuza Salijanovna</i>	
Maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishda psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni .....	443
<i>Karimova Nigora</i>	
Bo'lajak pedagoglarning intellektual-artistik mahoratini rivojlantirishda mikromodulli mobil ta'lim (M-Learning) texnologiyasining loyihasi .....	447
<i>Karribojeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformasi yordamida texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish.....	452
<i>Raxmatov A'zam Ashur o'g'li, Kenjayeva Marjona Komil qizi</i>	
CEFR standartlari asosida ielts imtihoniga tayyorlash metodikasi .....	457
<i>Mavlyanova Nilufar Suvankulovna, Ahadova Go'zal Ismatullojevna</i>	
Project-Based Learning in Professional Education .....	461
<i>Mukhtarova Nozima Kuchkarovna</i>	
Kreativ kompetensiya- zamonaviy o'qituvchi muhim kasbiy sifatining ustuvor omili .....	464
<i>Nazarova Madinabonu Narzi qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda psixologik xizmatning o'rni.....	468
<i>Nosirova Muhabbat Pirmurod qizi, Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchni oshirishda psixologik treninglarning ahamiyati.....	472
<i>Nozimbojeva Muqaddas Abdulvohid qizi</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish.....	477
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Abdulla avloniy ijodida gender madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarning pedagogik tahlili .....	480
<i>Nurimbetova Shaxnoza Gayrat qizi</i>	
Analitik kimyo fanidan mass-spektrometriya mavzusini muammoli ta'lim metodi asosida o'qitish samaradorligini oshirish.....	485
<i>Nurjanova Fazila Farxadovna, Qo'chqarova Nargiza Otabekovna</i>	
Talabalarda oilaviy budjetni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha ta'limining o'rni.....	489
<i>Nurmatova Maftuna Ilxamovna</i>	
Tyutorlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	493
<i>O'rinova Nilufar Muhammadovna, Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi</i>	
Ona tili darslarida o'quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish usullari.....	498
<i>O'rozbojeva Dilnoza Alimboy qizi</i>	
Xulq-atvor fe'llarining ma'nosini yoritishda misollarning funksional roli .....	501
<i>Ochilova Sanobar Narzullayevna</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlari .....	504
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik bosqichlari.....	508
<i>Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Qutlimuratova Barchinoy Xolmurot qizi, Sirojeva Jasmina Rustamovna</i>	
Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	512
<i>Otaboboyeva Umida Ilxomovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishida mental yondashuv metodikasining ahamiyati .....	517
<i>Parpijeva Mohinur Baxtiyor qizi</i>	
Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati.....	520
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali usullari .....	523
<i>Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Sanginova Sevinch Bunyod qizi</i>	
Pedagogik sinflarni tashkil etish tamoyillari va asoslari.....	527
<i>Sadullojeva Farog'at Hikmatillo qizi</i>	



Yillik mashg'ulot jarayonida o'rta masofa yuguruvchilarining tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirish metodikasi .....	530
<b>Saotov Farhod Alisher o'g'li</b>	
Bugungi kunda talabalarni mutaxassis sifatida shakllantirishda maqsadga muvofiqlik, natijadorlik, optimallik va ijodkorlik mezonlari (pedagogika ta'lim yo'nalishi misolida).....	535
<b>Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi</b>	
O'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodlari .....	539
<b>Sharipova Marjona Rashidovna</b>	
Zamonaviy yoshlar orasida prokrastinatsiya muammosi.....	543
<b>Tillayeva Nodira Iskandar qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish .....	546
<b>Umarova Gulshod Abduljabbarovna</b>	
Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining psixologik omillari .....	552
<b>Xolmirzayev Zafar Mirzamadinovich</b>	
Karate sport turining madaniyati.....	556
<b>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li</b>	
Ko'ngillilik faoliyatining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	560
<b>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</b>	
Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish .....	563
<b>Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich</b>	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
<b>Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi</b>	
Интерпретация биологических терминов на русском языке .....	570
<b>Абдуллаева Нигора Курбановна</b>	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
<b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой" .....	578
<b>Коржовова Шахло Одилжоновна</b>	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований .....	585
<b>Нурова Хикоят Кенжаевна</b>	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков ....	590
<b>Рахимова Мухайё Акмаловна</b>	

# YOSHLARNING IJTIMOYIY IDENTIFIKATSIYASI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Xolmirzayev Zafar Mirzamadinovich

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti  
psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi. Yoshlar davrida shaxsning o'zini anglash, muayyan ijtimoiy guruhga mansublik hissini shakllantirish, kasbiy va fuqarolik pozitsiyasini belgilash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ijtimoiy identifikatsiya shaxsning o'zini oila, ta'lim muhiti, tengdoshlar guruhi, milliy-madaniy qadriyatlar, kasbiy yo'nalish va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda anglash jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'z-o'zini anglash, refleksiya, motivatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va o'ziga ishonch kabi psixologik omillarning yoshlar identifikatsiyasiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy identifikatsiyaning barqaror shakllanishi yoshlarning ijtimoiy faolligi, psixologik moslashuvi va kasbiy o'zini belgilashi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ijtimoiy identifikatsiya, psixologik omillar, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy faollik, shaxs rivojlanishi, kasbiy identifikatsiya, tengdoshlar guruhi.

**Abstract:** This article analyzes the main psychological factors influencing the formation of social identification among young people. During youth, the processes of self-awareness, the formation of a sense of belonging to a particular social group, and the development of professional and civic positions become especially important. Social identification is considered as a process through which a young person understands themselves in relation to family, educational environment, peer groups, national and cultural values, professional orientation, and social surroundings. The article also highlights the influence of such psychological factors as self-awareness, reflection, motivation, social support, and self-confidence on the development of youth identification. The results of the theoretical analysis show that the stable formation of social identification is closely related to young people's social activity, psychological adaptation, and professional self-determination.

**Key words:** youth, social identification, psychological factors, self-awareness, social activity, personality development, professional identification, peer group.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование социальной идентификации молодёжи. В период молодости особое значение приобретают процессы самосознания, формирования чувства принадлежности к определённой социальной группе, а также становления профессиональной и гражданской позиции личности. Социальная идентификация рассматривается как процесс осознания молодым человеком себя во взаимосвязи с семьёй, образовательной средой, группой сверстников, национально-культурными ценностями, профессиональной направленностью и социальной средой. Также в статье освещается влияние таких психологических факторов, как самосознание, рефлексия, мотивация, социальная поддержка и уверенность в себе, на развитие идентификации молодёжи. Результаты теоретического анализа показывают, что устойчивое формирование социальной идентификации тесно связано с социальной активностью молодёжи, психологической адаптацией и профессиональным самоопределением.

**Ключевые слова:** молодёжь, социальная идентификация, психологические факторы, самосознание, социальная активность, развитие личности, профессиональная идентификация, группа сверстников.

## KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamli axborot oqimining kuchayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yoshlarning o'zini jamiyatda anglash jarayoni tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yosh shaxsning "Men kimman?", "Qaysi guruhga mansubman?", "Jamiyatdagi o'rnim qanday?", "Kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy vazifam nimadan iborat?" kabi savollarga javob izlashi uning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Mazkur jarayon shaxsning o'zini faqat individual mavjudot sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, qadriyatlar tizimi, milliy-madaniy muhit va kasbiy yo'nalish bilan bog'liq holda anglashini ifodalaydi.



Psixologiyada identifikatsiya shaxsning o'zini muayyan insonlar, guruhlar, qadriyatlar, kasb yoki ijtimoiy rollar bilan bog'lab anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy identifikatsiya esa shaxsning o'z "men"ini jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali tushinishi, ma'lum guruhga mansublik hissini shakllantirishi va shu guruh qadriyatlarini ichki qabul qilishi bilan izohlanadi. H.Tajfel va J.Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasida shaxsning o'zini muayyan guruhga mansub deb bilishi uning o'z-o'ziga bahosi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan <sup>[1]</sup>.

Yoshlar davri identifikatsiya shakllanishi uchun eng sezgir bosqichlardan biri hisoblanadi. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida aynan o'smirlilik va yoshlik davri "identifikatsiya - rol chalkashligi" bosqichi bilan tavsiflanadi. Bu davrda shaxs o'zining barqaror "men" obrazini shakllantirishga, kelajak hayotiy yo'lini belgilashga va jamiyatdagi o'rnini topishga intiladi [2]. Agar ushbu jarayon muvaffaqiyatli kechsa, yoshda o'ziga ishonch, mas'uliyat, ijtimoiy faollik va kasbiy maqsadlar shakllanadi. Aksincha, identifikatsiyaning noaniqligi, rol chalkashligi yoki ijtimoiy mansublik hissining zaifligi yoshlarning beqaror qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy passivligi yoki salbiy guruhlar ta'siriga berilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasiga ko'plab psixologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida oila muhiti, ta'lim jarayoni, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy tarmoqlar, o'z-o'zini anglash, motivatsiya, o'ziga ishonch, kasbiy yo'nalish va milliy-madaniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, hozirgi raqamli jamiyatda yoshlarning identifikatsiyasi faqat real ijtimoiy muhitda emas, balki virtual makonda ham shakllanmoqda. Bu holat bir tomondan yoshlarning dunyoqarashini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ularda noto'g'ri ijtimoiy taqqoslash, soxta ideal obrazlarga ergashish va identifikatsiya noaniqligi xavfini kuchaytiradi. Shu bois yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining psixologik omillarini o'rganish ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy o'zini belgilashi va psixologik barqarorligini tushunishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi muammosi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va ijtimoiy falsafa fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda identifikatsiya jarayonining psixologik mexanizmlari, rivojlanish bosqichlari hamda unga ta'sir etuvchi omillar keng yoritilgan.

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasining asoschilari H.Tajfel va J.Turner hisoblanadi. Ular ijtimoiy identifikatsiyani shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida anglashi va shu guruhga mansublik hissini shakllantirishi bilan bog'liq psixologik jarayon sifatida izohlaydilar. Olimlarning fikricha, insonning o'z-o'zini baholashi va ijtimoiy xulq-atvori ko'p jihatdan uning qaysi guruhga mansubligini qanday qabul qilishiga bog'liqdir.

Shaxs rivojlanishi va identifikatsiya muammosini o'rganishda E.Eriksonning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Uning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlilik va yoshlik davrida identifikatsiya shakllanishi markaziy psixologik vazifa hisoblanadi. Olim ushbu bosqichni "identifikatsiya - rol chalkashligi" davri deb atab, yoshlarning o'z hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va kelajakdagi ijtimoiy mavqei belgilashga intilishini ta'kidlaydi.

J.Marcia Erikson g'oyalarini rivojlantirib, identifikatsiyaning to'rtta holatini: erishilgan identifikatsiya, muddatidan oldin qabul qilingan identifikatsiya, moratoriy va diffuz identifikatsiyani ajratib ko'rsatgan. Tadqiqotchining fikricha, shaxsning izlanish faoliyati va mustaqil tanlov qilish qobiliyati identifikatsiya shakllanishining muhim mezonlari hisoblanadi.

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning o'ziga ishonchi va shaxsiy samaradorlik hissi ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi. Olimning ta'kidlashicha, o'z imkoniyatlariga ishongan yoshlar ijtimoiy faolroq bo'lib, jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlashga va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishga ko'proq intiladi.

L.S.Vygotsky shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini asoslab bergan. Uning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko'ra, insonning psixik rivojlanishi ijtimoiy muloqot va madaniy tajribani o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Shu sababli oila, ta'lim muhiti va tengdoshlar guruhi yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlardan E.G'oziyev, V.Karimova, G'.Shoumarov, B.Qodirov va boshqa tadqiqotchilar shaxs rivojlanishi, o'z-o'zini anglash, ijtimoiylashuv hamda yoshlar psixologiyasi masalalarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy identifikatsiya masalasi ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni kompleks tarzda tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularning yoshlar ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlash.

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda ijtimoiy identifikatsiya, shaxs rivojlanishi va yoshlar psixologiyasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy nazariy manbalar sifatida H.Tajfel, J.Turner, E.Erikson, J.Marcia, A.Bandura, L.S.Vygotsky va boshqa olimlarning shaxs rivojlanishi, ijtimoiy identifikatsiya va o'z-o'zini anglashga oid ilmiy qarashlari o'rganildi. Tahlil jarayonida yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqildi: oilaviy muhit, ta'lim muhiti, tengdoshlar guruhi, kasbiy yo'nalish, o'z-o'zini anglash, shaxsiy samaradorlik hissi, ijtimoiy tarmoqlar va milliy-madaniy qadriyatlar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Bu jarayonda birinchi muhim omil sifatida oila muhiti ajralib turadi. Oila yosh shaxsning dastlabki ijtimoiy tajriba maydoni bo'lib, unda bolaning o'ziga, boshqalarga va jamiyatga munosabati shakllanadi. Ota-onaning tarbiya uslubi, farzand bilan muloqot sifati, oiladagi emotsional muhit va qo'llab-quvvatlash darajasi yoshning ijtimoiy identifikatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetgan yosh o'zini qadrlangan, kerakli va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli shaxs sifatida anglaydi. Aksincha, doimiy tanqid, befarqlik yoki haddan tashqari nazorat identifikatsiya jarayonida o'ziga ishonchsizlik, noaniqlik va ijtimoiy passivlikka olib kelishi mumkin.

Ikkinchi muhim omil ta'lim muhitidir. Ta'lim muassasasi yoshlar uchun nafaqat bilim olish, balki jamoada ishlash, fikr bildirish, mas'uliyat olish, liderlik qobiliyatlarini namoyon qilish va kasbiy yo'nalishni aniqlash maydoni hisoblanadi. Ta'lim jarayonida yoshlar o'z qobiliyatlarini sinab ko'radi, o'ziga baho beradi va jamiyatda qanday rol egallashi mumkinligini anglay boshlaydi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijobiy muloqot, adolatli baholash, rag'batlantirish va shaxsiy imkoniyatlarni tan olish yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchi omil tengdoshlar guruhi bilan bog'liq. Yoshlar o'zini anglash jarayonida tengdoshlarining fikri, bahosi va munosabatiga kuchli ehtiyoj sezadi. Tengdoshlar guruhi yoshga "Men boshqalar orasida qandayman?", "Meni qabul qilishadimi?", "Men qaysi guruhga mansubman?" kabi savollarga amaliy javob beradi. Ijobiy tengdoshlar muhiti yoshda o'ziga ishonch, ijtimoiy ochiqlik, hamkorlik va faollikni kuchaytiradi. Salbiy guruh ta'siri esa konformizm, noto'g'ri qadriyatlarni qabul qilish, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy begonlashuvga sabab bo'lishi mumkin.

To'rtinchi omil o'z-o'zini anglash va refleksiya hisoblanadi. Yosh shaxs o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlarini anglagan sari uning identifikatsiyasi aniqroq shakllanadi. J.Marcia identifikatsiya rivojlanishini "izlanish" va "majburiyatni qabul qilish" mezonlari orqali tushuntirgan. Unga ko'ra, shaxsning kasb, qadriyat va hayotiy yo'l borasida izlanishi hamda tanlangan yo'nalishga sodiqligi identifikatsiya barqarorligini belgilaydi<sup>[3]</sup>. Demak, yoshning mustaqil fikrlashi, tanlov qilishi va o'z qarori uchun mas'uliyat olishi ijtimoiy identifikatsiyaning muhim belgilaridan biridir.

Beshinchi omil kasbiy yo'nalish va kelajak tasavvuridir. Yoshlar davrida kasb tanlash, hayotiy maqsadni belgilash va jamiyatda foydali o'rin egallash istagi kuchayadi. Kasbiy identifikatsiya shaxsning o'zini kelajakdagi kasb egasi sifatida tasavvur qilishi, shu kasbga xos qadriyat, bilim va xulq-atvor normalarini qabul qilishi bilan namoyon bo'ladi. Agar yosh o'z kasbiy yo'nalishini ongli tanlasa, unda ichki motivatsiya, maqsadga intilish va ijtimoiy faollik ortadi. Aksincha, kasb tanlash tashqi bosim, majburiyat yoki tasodifiy omillar asosida kechsa, identifikatsiya ziddiyatli shakllanishi mumkin.

Oltinchi omil ijtimoiy tarmoqlar va axborot muhiti bilan bog'liq. Hozirgi yoshlar identifikatsiyasi real ijtimoiy muhit bilan birga virtual muhitda ham shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshga o'zini namoyon qilish, yangi guruhlariga qo'shilish va turli qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual makondagi idealizatsiyalangan obrazlar, soxta muvaffaqiyat namunalari, doimiy taqqoslash va informatsion bosim identifikatsiya noaniqligini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashini kuchaytirish va virtual muhitdagi ta'sirlarni ongli baholashga o'rgatish muhimdir.

Yettinchi omil o'z-o'ziga ishonch va shaxsiy samaradorlik hissidir. A. Bandura nazariyasiga ko'ra, shaxsning o'z imkoniyatlariga ishonchi uning xulq-atvori, motivatsiyasi va qiyinchiliklarga munosabatiga ta'sir qiladi<sup>[4]</sup>. Yosh o'zini qobiliyatli, foydali va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli deb his qilsa, u yangi vazifalarni bajarishga, jamoada qatnashishga va tashabbus ko'rsatishga ko'proq moyil bo'ladi. O'ziga ishonchsizlik esa ijtimoiy chekinish, passivlik va "Men bunga qodir emasman" degan ichki to'siqlarni kuchaytiradi.



Sakkizinchi omil milliy-madaniy qadriyatlar va jamiyatga mansublik hissidir. Til, an'ana, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va jamiyatdagi umumiy maqsadlar yoshda "Men shu jamiyatning bir qismiman" degan mansublik hissini shakllantiradi. Bu hissiyot ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va jamoaviy faollikni kuchaytiradi. Milliy-madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan ijtimoiy identifikatsiya yoshlarning o'z xalqiga, jamiyatiga va kelajagiga daxldorlik hissini mustahkamlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi bitta omil ta'sirida emas, balki bir nechta psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida shakllanadi. Oila, ta'lim, tengdoshlar guruhi, o'z-o'zini anglash, kasbiy yo'nalish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi uyg'un bo'lsa, yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi barqaror shakllanadi. Bunday yoshlar ijtimoiy hayotda faolroq, mas'uliyatliroq va maqsadga intiluvchanroq bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va ko'p omilli psixologik jarayondir. Ushbu jarayonga oila muhiti, ta'lim tizimi, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy tarmoqlar, kasbiy yo'nalish, o'z-o'zini anglash, o'ziga ishonch va milliy-madaniy qadriyatlar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy identifikatsiya yosh shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglashiga, o'z ijtimoiy rolini qabul qilishiga va faol hayotiy pozitsiya shakllantirishiga xizmat qiladi. Barqaror ijtimoiy identifikatsiya yoshlarning ijtimoiy faolligi, kasbiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va psixologik barqarorligini mustahkamlaydi. Aksincha, identifikatsiya noaniqligi yoki rol chalkashligi yoshlarning ijtimoiy passivligi, o'ziga ishonchsizligi va tashqi salbiy ta'sirlarga berilish xavfini oshiradi.

Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarning faqat bilim olishi emas, balki o'zini anglash, mustaqil fikrlash, ijtimoiy mansublik, kasbiy yo'nalish va shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Oila, ta'lim muassasasi, mahalla, yoshlar tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorlikdagi faoliyati yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasini barqaror shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tajfel H., Turner J.C. An integrative theory of intergroup conflict. In: Austin W.G., Worchel S. The Social Psychology of Intergroup Relations. Monterey, CA: Brooks/Cole, 1979. P. 33-47.
2. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. New York: W.W. Norton & Company, 1968. 336 p.
3. Marcia J.E. Development and validation of ego-identity status. *Journal of Personality and Social Psychology*. 1966;3(5):551-558.
4. Bandura A. Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. *Psychological Review*. 1977;84(2):191-215.
5. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Leontyev A.N. *Activity, Consciousness, and Personality*. Moscow: Progress Publishers, 1978.
7. Crocetti E., Rubini M., Meeus W. Capturing the dynamics of identity formation in various ethnic groups: Development and validation of a three-dimensional model. *Journal of Adolescence*. 2008;31(2):207-222.
8. Branje S. Adolescent identity development in context. *Current Opinion in Psychology*. 2022;45:101286.
9. Schwartz S.J., Luyckx K., Vignoles V.L. *Handbook of Identity Theory and Research*. New York: Springer, 2011.
10. Jenkins R. *Social Identity*. 4th ed. London: Routledge, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.